
Har bir e'tibor zamirida inson omili mujassam



Har bir e'tibor zamirida inson omili mujassam

Viloyatimizning yagona anklav tumani - Suxda "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida saxovatpesha insonlar, tadbirkorlar tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamini moddiy qo'llab-quvatlashga doir arzirli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni ro'zai ramazon kunlarida amalga oshirilayotgan bunday ezshgu ish va amallar ehtiyojmand oilalar, keksa-nuroniy otaxon va onaxonlarning quvonchiga sabab bo'layotir.

Tumanning birichni sektori kotibi Mirzo Abbosovning ma'lumotiga ko'ra, bugun sektor hududidagi Tul va Qal'acha mahallalarida istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oilalar holidan tadbirkorlar ishtirokida xabar olinib, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatildi. Ehtiyojmand oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari qatorida pul mablag'lari, parranda, qo'y, quyon ham yetkazib berilayapti.



“Ucha farzandim bor. Turmush o’rtog’im asli ustachilik bilan shug’ullanib, har yili ishlashga Rossiyaga borib kelardi. Bu yili pandemiya sababli bora olmadi. Prezidentimizga ming rahmat, ularning odilona siyosati tufayli biz kabi fuqarolar holidan doimiy xabar olib turishadi. Yaqinda tuman hokimi o’zi kelib, bizning oilaga homiylarning moddiy ko’magini taqdim etgan edi. Men ham o’z navbatida uyimiz ta’mirtalab bo’lib qolganligi va ta’mirlashda ko’mak lozimligi haqida hokimga murojaat etgan edim. Mana, iki kun o’tmasdan, oilamizga tuman hokimi ko’magi bilan ta’mirlash ishlari uchun zaruriy ashyolar olib kelindi. Murojaatimni inobatga olib, darhol yordam berganliklari uchun oilamiz nomidan minnatdorchiligimni bildiraman” – deydi Tul mahallasida yashovchi fuqaro, mahallaga Tojikistondan kelin bo’lib tushgan Muqaddas Abdunazarova. Tuman hokimi, mahalla raisi, tuman Kengashi deputati yordami bilan endilikda Abdunazarovlar xonadoni ham zamonaviy ta’mirlanadigan bo’ldi. Ta’mirlash ishlariga ketadigan barcha xarajatlar tashabbuskorlar tomonidan qoplanadi.



Himoyatxon Qosimova ham Tul mahallasida yashaydi. Keksalikka hali tan bermagan bo'lsalarda, lekin Himoyatxon-aya ijtimoiy ko'makka mo'htoj fuqarolardan. Onaxonga aprel oyi uchun foydalangan elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun to'lov kvitantsiyasi bevosita tuman hokimi tomonidan taqdim etildi. Elektr va gaz qarzdorligidan qutulgan onaxonga sholi ekish uchun traktor lozimligi ma'lum bo'lgach, bu masala ham tuman hokimligi va tuman Kengashi deputati Hamroali Haydarov yordamida hal etiladigan bo'ldi.



Aytganimizdek, ijtimoiy himoyaga mo'htoj oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari qatorida yordam sifatida pul mablag'lari ham taqdim etilmoqda. Tuman hokimi tomonidan Qal'acha mahallasidagi uch nafar fuqarolarga 100 000 so'mdan pul mablag'lari taqdim etildi.

Tuman hokimi Farrux Usarovdan jo'jalarni xayriya sifatida qabul qilgan fuqaro Dilrabo Haydarova ham bunday ezgu tashabbus va ko'maklardan minnatdor. Qal'achalik yana bir oila - Ziyodullo va Gulbahor Habibovlarga saxovatpesha tadbirkor nomidan bir dona qo'y hadya qilindi. Albatta, bunday ezgu tashabbus va xayr-saxovat amallar ro'yixatini davom ettirish mumkin. Berilayotgan bunday e'tibor zamirida inson omili mujassam. Zotan, har bir inson, Vatanimiz havosidan nafas olib yashayotgan har bir odam O'zbekiston Respublikasi fuqarosidir va ular mana shunday e'tibor, e'zoz va ehtiromga loyiq insonlardir. Biz yaxshi-yomon kunalarda, sinovli damlarda bir-biriga yaqin, tanch va suyanch bo'lgan xalqmiz. Bu umrboqiy qadriyatga sodiqlik va abadiyatga mo'hrlanajak bu udumni kelgusi avlodlarga ulashmoq bizning insoniy burchimizdir.





Albatta, bunday ezgu amal va tashabbuslar bardavomligiga barchamiz ishonamiz. Zotan, ishonch va e'tibor bo'dgan joyda ertangi kun va porloq kelajakga bo'lgan umid aslo so'nmaydi.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-04 18:09:05